

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

XUDOYAROV ANVAR NAZIRJONOVICH

**PUSHTADA PAXTA YETISHTIRISH UCHUN
RESURSTEJAMKORLIKKA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYA VA
KOMBINATSIYALASHGAN AGREGATNI ISHLAB CHIQISHNING
ILMIY-TEXNIK YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Xudoyarov Anvar Nazirjonovich

Pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo‘naltirilgan texnologiya va kombinatsiyalashgan agregatni ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari..... 3

Худояров Анвар Назиржонович

Научно-технические решения разработки направленных на ресурсосбережение технологии и комбинированного агрегата для возделывания хлопка на гребнях..... 27

Khudoyarov Anvar Nazirjonovich

Scientific and technical solutions for the development of resource-saving technology and combined aggregate for cultivating cotton on ridges..... 53

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

XUDOYAROV ANVAR NAZIRJONOVICH

**PUSHTADA PAXTA YETISHTIRISH UCHUN
RESURSTEJAMKORLIKKA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYA VA
KOMBINATSIYALASHGAN AGREGATNI ISHLAB CHIQISHNING
ILMIY-TEXNIK YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T481 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qxmiti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

To'xtaqo'ziyev Abdusalim

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich

texnika fanlari doktori, professor

Xudayarov Berdirasul Mirzayevich

texnika fanlari doktori, professor

Abdulxayev Xurshed G'afurovich

texnika fanlari doktori, k.i.x.

Yetakchi tashkilot:

**Qishloq xo'jaligi texnikasi va
texnologiyalarini sertifikatlash va sinash
markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «_____» _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisining o'rinbosari, texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

B.P.Artikbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha PhD, katta ilmiy xodim

R.R.Xudaykuliye

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtiriladigan yerlarga ishlov berishda qo‘llaniladigan energiya-resurstejamkor, ish unumi yuqori bo‘lgan mashinalarni ishlab chiqarish va qo‘llash yetakchi o‘rinni egallaydi. «Hozirda dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlarni yetishtirish uchun har yili 1,8 mlrd. ha maydonga ishlov berilishi»¹, shundan har yili o‘rtacha «120 mln. ha maydonda ekinlar pushtada yetishtirilishni hisobga olsak»², yerlarga ishlov berish va pushta shakllantirishda qo‘llaniladigan energiya-resurstejamkor hamda ish unumi yuqori bo‘lgan mashinalarni yaratish, ishlab chiqarish va joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu bois bunday ilmiy-texnik muammoni yechishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta dalalarini pushta olib chigit ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnik vositalarning yangi avlodlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan bir o‘tishda tuproqni ag‘darmasdan yumshatish, yumshatilgan joyga qatlamlab o‘g‘it solish, yumshatilgan va o‘g‘itlangan qatlam ustiga pushta hosil qilish jarayonlarini bajaradigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqish va uning texnologik ish jarayonini hamda ish organlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha maqsadli izlanishlarni olib borish dolzarb ilmiy-texnik muammolardan hisoblanadi.

Respublikamizda turli sohalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, energiya-resurstejamkorlikni ta‘minlash uchun mashina va qurilmalarning yangi turlarini yaratish hamda takomillashtirish bo‘yicha keng miqyosda ilmiy tadqiqotlarni olib borish, xususan qishloq xo‘jaligi uchun ish unumi yuqori bo‘lgan va resurstejamkor mashinalarning yangi avlodlarini ishlab chiqish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash, ... sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, ...sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini joriy qilish, ...sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish» kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo‘naltirilgan texnologiya va kombinatsiyalashgan agregatni ishlab chiqish orqali yuqori ish unumi va sifatini ta‘minlash, paxtadan yuqori hosil olish, uning tannarxini pasaytirish hamda energiya-resurstejamkorlikni ta‘minlash bugungi kundagi muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish,

¹http://evdemosfera.narod.ru/issl/issl/ek_zemlia.html

²<http://www.nrcs.usda.gov>; <http://cropwatch.unl.edu/tillage/ridge>

agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida» gi, 2020 yil 30 iyundagi PQ-4765-son «Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Pushtaga ekin ekish uchun yerlarni tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va texnika vositalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Agricultural Department of the USA, Texas Agricultural and Mechanical University, Oklahoma State University, Mississippi State University, Texas A&M University, Agricultural Research Centre, National Soil Dynamics Laboratory (AQSh), Australian Cotton Research Institute (Avstraliya), Department of Agricultural Machinery (Turkiya), Hunan Agricultural University (Xitoy), University of Manitoba (Kanada), Federal ilmiy agroinjeneriya markazi, V.P. Goryachkin nomidagi Moskva davlat agroinjeneriya universiteti, (Rossiya), Belarus davlat agrar texnika universiteti, Belarus davlat qishloq xo'jalik akademiyasida olib borilmoqda.

Dalalarni pushta olib, urug' ekishga tayyorlashga oid jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: bir o'tishda pushtada tik turgan g'ozapoyalarni yotqizib, ularni qalamchalarga bo'lib va pushtalarni qayta shakllantirish texnologiyasi va texnika vositasi ishlab chiqilgan (Mod Track Leader Centre, AQSh); pushta olish va bir yo'la uning yuzasiga ishlov berishni qo'shib bajaradigan kultivator va qurilmalar (Department of Agricultural Machinery, Turkiya); bir o'tishda g'ozapoyalarni ildizi bilan kovlab olib ularni yotqizib, ustida yangi pushta shakllantirish texnologiyasi va texnika vositasi ishlab chiqilgan (Rome-Pegasus Centre, AQSh); sferik diskli ish organlari bilan pushtalar hosil qilish usuli ishlab chiqilgan (Lemken, Germaniya); bir o'tishda pushta olib unga urug' ekish texnologiyasi va texnika vositasi ishlab chiqilgan (Aristotle University of Thessaloniki, Gretsiya). Lekin ta'kidlagan tadqiqotlarda pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya va uni bajaradigan mashinalarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha o'rganilmagan va hal etilmagan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pushta hosil qilishning resurstejamkor texnologiyasi va uni bajaradigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar xorijda Z.Huabin, H.Huang, L.Jianxia, Y.Lin, H.Hui (Xitoy), D.Buhler, L.M.Duzy, A.J.Prise, K.S.Balksom, T.S.Korneski (AQSh), A.Giardini, F.Sinti, G.Stefanelli (Italiya), J.Babik, J.M.Borin, L.Sartori (Polsha), U.Krause, K.Heinz-Josef (Germaniya), P.N.Burchenko, P.S.Nartov, F.M.Kanarev, N.K.Mazitov, A.N.Serdechniy, M.E. Matsepuro, V.F.Strelbitskiy, V.K.Sharshak (Rossiya) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar respublikamizda A.X.Xadjiyev,

R.I.Boymetov, A.To'xtaqo'ziyev, A.A.Axmetov, A.R.Mirsaidov, S.A.Kunduzov, F.M.Mamatov, T.S.Xudoyberdiyev, B.Xudoyarov, Z.Botirovlar tomonidan olib borilgan. Ularda bir o'tishda pushta va egatlar hosil qilinganda tuproqda namni saqlanishi, tuproq unumdorligi hamda qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshishi, xarajatlarni qisqarishi, yetishtirilgan mahsulot tannarxini kamayishi aniqlangan.

Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan mashina va qurilmalar muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Ammo ko'rsatib o'tilgan tadqiqotlarda respublikamiz sharoitida pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya va uni bajaradigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqish ilmiy-texnik muammosini hal etish bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti hamda Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida Davlat ilmiy-texnikaviy dasturi doirasidagi A-13-081 "Paxtachilikda tuproqqa ishlov berishni minimallashtirish bo'yicha energiya-resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish va kombinatsiyalashgan agregatlarni yaratish" hamda KXA-15-02 "Tuproqqa noan'anaviy usulda ishlov berish sistemasi uchun energiya-resurstejamkor kombinatsiyalashgan agregatlarni takomillashtirish" amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya va kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-texnikaviy muammoni yechish yo'li bilan yerlarni pushtada paxta yetishtirish uchun tayyorlashga sarflanadigan xarajatlarni va mehnat sarfini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni ekishga tayyorlash texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan mashinalarni ishlab chiqish yuzasidan ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

pushtada paxta yetishtirishda yerlarni ekishga tayyorlash uchun resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya va uni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatni ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatga qo'yilgan asosiy talablarni ishlab chiqish va uning agrotexnikaviy samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregatning texnologik ish jarayoni va parametrlarini asoslashga doir nazariy va tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazish;

o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregatning tajriba nusxasini tayyorlash va uning xo'jalik sinovlarini o'tkazish;

asoslangan parametrlarga ega ish organlari bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan agregatning xo'jalik sinovlari natijalarini agrotexnika

talablariga mosligini baholash va uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida tuproq, resurstejamkor texnologiya, kombinatsiyalashgan agregat va uning ish organlari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Paxta va takroriy ekinlardan bo'shagan dala tuprog'ining fizik-mexanik xossalari, kombinatsiyalashgan agregat ish organlarining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalovchi mexanik-matematik modellar, uning ish ko'rsatkichlarini ish organlarining parametrlari va harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari, ish organlarining ratsional parametrlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari qo'llanilgan hamda mavjud me'yoriy hujjatlar (GOST 20915-11, O'zDSt 3355:2018, O'zDSt 3412:2019, O'zDSt 3193:2017 va RD Uz 63.03-98)da keltirilgan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kombinatsiyalashgan agregatning konstruksiyasi agregatning bir o'tishida o'tgan mavsumdagi sug'orish egatlarini ag'darmasdan yumshatish, yumshatilgan qatlamni o'g'itlash hamda yumshatib o'g'itlangan joyga eski pushtalarni surish orqali yangi pushtalar shakllantirish talablari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan;

respublikamizning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregatga qo'yilgan asosiy talablar ishlab chiqilgan va uning agrotexnikaviy samaradorligi aniqlangan;

tuproq qatlamini ag'darmasdan yumshatish, yumshatilgan qatlamni o'g'itlash hamda pushta shakllantirish jarayonlarini ifodalaydigan analitik bog'lanishlar ishlov berilgan qatlam tuprog'ining xossalari hisobga olingan holda keltirib chiqarilgan va ular asosida ish organlarining parametrlari asoslangan;

yumshatkichning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini tadqiq etish asosida uning ishchi sirtining geometrik shakli asoslangan, tuproqqa kirish burchagi, ishchi sirtining uzunligi va eni, ustunining o'tkirlanish burchagi hamda uning tortishga qarshiligini aniqlash imkonini beradigan analitik ifodalar olingan;

pushta olgich kesayotgan tuproq palaxsasining o'lchamlari, u hosil qilayotgan pushta balandligi, uning tuproqqa botish chuqurligini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar hamda tuproq bo'laklarining pushta olgich ishchi sirtidagi va undan tushgandan keyingi harakatini ifodalovchi matematik modellar olingan;

ish organlari parametrlarining maqbul qiymatlari agrotexnik va energetik mezonlar bo'yicha asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya hamda bir o'tishda sug'orish egatlarini ag'darmasdan yumshatadigan, yumshatilgan joyni ikki qatlamda lentasimon usulda o'g'itlaydigan, pushta shakllantiradigan ish organlari bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan texnologiya va kombinatsiyalashgan agregat qo'llanilganda material hajmdorlik, ekspluatatsion xarajatlar va mehnat sarfining kamayishi ta'minlangan hamda energiya-resurstejamkorlikka erishilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning nazariy mexanika va oliy matematikaning qonun va qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribaviy tadqiqotlarning esa zamonaviy usul va vositalardan foydalanib amalga oshirilganligi, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarda olingan natijalarning bir-biriga mosligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ishning samarasi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregat sinovlarining ijobiy natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O‘tkazilgan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregat sifat va energetik ko‘rsatkichlarini uning ish organlari shakli va parametrlariga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlarini ifodalaydigan matematik modellar, analitik ifodalar va regressiya tenglamalari olinganligi hamda ulardan boshqa shunga o‘xshash mashinalarni ishlab chiqish va ularga doir nazariy tadqiqotlarni o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregat bir o‘tishda pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashi tufayli material hajmdorlikni, ekspluatatsion xarajatlarni va mehnat sarfini kamayishi hamda energiya-resurstejamkorlikka erishilganligi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo‘naltirilgan texnologiya va kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregat konstruksiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk markazi” ning foydali modelga patenti olingan (“Chigit ekish uchun tuproqni tayyorlaydigan agregat”, FAP 00728 – 2012 y.). Natijada pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregat konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlash texnologik jarayoni bajarilishining sifat ko‘rsatkichlarini baholashga dastlabki talablar va kombinatsiyalashgan agregat konstruksiyasini loyihalashga texnik topshiriq ishlab chiqilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 26 iyundagi №05/05/3152-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada paxta va takroriy ekinlardan bo‘shagan dalalarni kuzda agregatning bir o‘tishida pushtada paxta yetishtirish uchun tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatning tajriba nusxasi Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa va Paxtaobod tumanlari fermer xo‘jaliklariga hamda PSUEAITI Andijon tajriba stansiyasida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 26 iyundagi №05/05/3152-sonli ma‘lumotnomasi). Bunda pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashga ekspluatatsion xarajatlari 1,5 marta, mehnat sarfi esa 51,08 foizga kamaygan;

kombinatsiyalashgan agregatning sanoat nusxasini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha-konstruktorlik hujjatlari (texnika topshiriq va chizmalar) “BMKB-Agromash” AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi

vazirligining 2023 yil 26 iyundagi №05/05/3152-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tavsiya etilgan parametrlarga ega bo'lgan ish organlari bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan agregatni sanoat usulda ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy – texnik va ilmiy – amaliy anjumanlarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 tasi monografiya, 1 ta foydali modelga patent olingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola, jumladan, 13 tasi Respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 193 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan va ularning amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiyasi natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoning qo'yilishi. Tadqiqot maqsadi va vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida pushtada paxta yetishtirishning afzalliklari, pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashda qo'llanilayotgan mavjud texnologiyalar va texnika vositalari hamda kombinatsiyalashgan agregatlar tahlili, tuproqqa ishlov berish, o'g'it solish texnologiyalari, me'yori, muddati, usullari, ularni amalga oshiruvchi qurilmalarni yaratish hamda ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil etilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashning mavjud texnologiyasida jarayonlar alohida-alohida bajarilishi ekishga tayyorlash muddatlarini cho'zilishiga, ko'p mehnat, yonilg'i va boshqa moddiy xarajatlarni sarflanishiga, tuproq strukturasi buzilishi va haydov osti qatlamini ortiqcha zichlanishiga olib keladi. Shu bois pushtada paxta yetishtirishda energiya-resurstejamkorlikni ta'minlash hamda ish unumini orttirish maqsadida resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya va kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqish va u ish organlarining kam energiya sarflab, yuqori ish sifatini ta'minlovchi parametrlarini asoslash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.


Dissertatsiyaning «**Pushtada paxta yetishtirish uchun resurstejamkorlikka yo'naltirilgan texnologiya va uni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatni ishlab chiqish**» deb nomlangan ikkinchi bobida pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashning resurstejamkor texnologiyasi va uni

amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatni ishlab chiqish va uning ishlash sharoiti, agrotexnikaviy samaradorligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Taklif etilayotgan texnologiyada kuzda o'tgan mavsumdagi sug'orish egatlari agregatning bir o'tishida 30-40 cm chuqurlikda ag'darmasdan yumshatiladi, yumshatilgan qatlam tubi va undan 30-40 cm balandlikda joylashgan qatlam o'g'itlanadi, eski pushtalar shu joylarga surilib, balandligi 25-30 cm bo'lgan yangi pushtalar hosil qilinadi, ya'ni o'tgan mavsumdagi egatlar o'rnida osti yumshatilgan va o'g'itlangan pushtalar, pushtalar o'rnida esa egatlar hosil bo'ladi (1-rasm).


Ushbu texnologiyani amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregat (2-rasm) rama 1, osish qurilmasi 2, yumshatkichlar 3, pushta olgichlar 4, o'g'it bunkerlari 5, o'g'it solgichlar 6, o'g'itlash qurilmasini harakatga keltiruvchi mexanizm 7 va tayanch g'ildiraklar 8 dan tashkil topgan.

O'tkazilgan uch yillik agrotexnikaviy tajribalar taklif etilayotgan texnologiya mavjudga nisbatan suvni to'g'ridan-to'g'ri g'o'za ildiziga yetkazilishi hisobiga gektariga 1666 m³ kam sarflanishi hamda chigitni erta va qisqa muddatlarda ekib, tekis unib chiqishini ta'minlash bilan birga g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilishi hisobiga hosildorlik 9,3-9,5 q/ha yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Bu taklif etilayotgan texnologiyani qo'llash paxtani erta yetishtirish va yuqori hosil olishda muhim ekanligini ko'rsatadi.



a-mavjud pushta va sug'orish egati; b-hosil bo'lgan yangi pushta va sug'orish egati.

1-rasm. Pushtada paxta yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashning taklif etilayotgan resurstejamkor texnologiyasi



2-rasm. Kombinatsiyalashgan agregatning sxemasi


Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan agregat yumshatkichining parametrlarini asoslash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida tuproqni yumshatkich ta'sirida deformatsiyalanish va parchalanish jarayonlari o'rganilgan, yumshatkich ish sirtining geometrik shakli, eni, tuproqqa kirish

burchagi, uzunligi va ustunining o'tkirlanish burchagi hamda tortishga qarshiligini aniqlash imkonini beradigan analitik ifodalar hamda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Yumshatkich (3-rasm) ta'sirida tuproq oldin siqiladi va unda hosil bo'ladigan kuchlanish kritik chegaraga yetganda parchalanadi.

Ish organining agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlari ko'p jihatdan u tuproqni siqishdan boshlab parchalaguncha bosib o'tadigan masofa S ga bog'liq. Bu masofa kichik bo'lsa tuproqning uvalanish sifati yuqori, tortishga qarshiligi esa kam bo'ladi, S katta bo'lganda tuproqdan yirik-yirik kesaklar ko'chib tortishga qarshiligi ortadi.

Ish organi ta'siri ostida tuproq siljish hisobiga parchalanadi deb qarab, S masofani aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi



1-ustun; 2-boshmoq;
3-iskanasimon yumshatkich
**3-rasm. Kombinatsiyalashgan
agregatning yumshatkichi**


$$S = 2 \left\{ [\tau_k] \left[b_{yu} \cos \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) + htg \left(\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2} \right) \right] \times \right. \\ \times h \cos \frac{1}{2} (\varphi_1 + \varphi_2 - \alpha_{yu}) \cos \varphi_1 \left. \right\}^{\frac{1}{2}} \times \left\{ dh^p \left(1 + K_V V \sin \frac{\alpha_{yu}}{2} \right) \times \right. \\ \left. \times b_{yu} \cos^2 \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) \left[\cos (\alpha_{yu} + \varphi_1) + \cos \varphi_2 \right] \sin \alpha_{yu} \right\}^{\frac{1}{2}}, \quad (1)$$

bunda $[\tau_k]$ – tuproqni siljishga kiritik qarshiligi, Pa; b_{yu} – yumshatkichning eni, m; α_{yu} – yumshatkichning tuproqqa kirish burchagi, °; φ_1, φ_2 – tuproqning tashqi va ichki ishqalanish burchaklari, °; d – proporsionallik koeffitsienti, N/m³; p – tuproqning fizik-mexanik xossalriga bog'liq bo'lgan koeffitsient; K_V – tuproqning hajmiy ezilish koeffitsientini tezlikka bog'liq ravishda o'zgarishini hisobga oluvchi koeffitsient, V – harakat tezligi, m/s; h – ishlov berish chuqurligi, m.

(1) ifodadan ko'rinib turibdiki, berilgan ish sharoiti, ishlov berish chuqurligi va tezligi uchun S ning qiymati asosan ish organining tuproqqa kirish burchagiga bog'liq.


$[\tau_k] = 2 \cdot 10^4$ Pa; $\varphi_1 = 30^\circ$; $\varphi_2 = 40^\circ$; $p = 1$; $d = 2,5 \cdot 10^7$ N/m³ va $K_V = 0,1$ qabul qilinib, (1) ifoda bo'yicha tezlik va ishlov berish chuqurligining turli qiymatlarida S masofani α_{yu} burchakka bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari qurildi (4-rasm). Ulardan ko'rinib turibdiki, har ikkalla holda ham S masofa α_{yu} burchakka bog'liq ravishda botiq parabola ko'rinishida o'zgaryapti va $\alpha_{yu} = 30^\circ$ da u minimal qiymatga ega bo'lyapti.

Yumshatkich ish sirtining geometrik shaklini asoslash uchun tuproqni tekis, qavariq va botiq sirtli ponalar ta'siri ostida deformatsiyalanish jarayoni ko'rib



1-V=1,7 m/s; 2-V=2,2 m/s;
3-V =2,7 m/s; 4-V=3,2 m/s

a



1-h=20 cm; 2-h=25 cm; 3-h=30 cm;
4-h =35 cm ba 5-h=40 cm

b

4-rasm. Ish tezligi (a) va ishlov berish chuqurligining (b) turli qiymatlarida yumshatkich tuproqni siqishdan parchalanguncha bosib o'tgan masofa S ni uning tuproqqa kirish burchagi α_{yu} ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

chiqildi (5-rasm). Tekis sirtli pona ta'siri ostida tuproq parchalanguncha (5, a-rasm) uning ishchi sirtiga perpendikulyar yo'nalishda siqiladi (yeziladi) va siqilish mustahkamlik chegarasiga yetganda palaxsa harakat yo'nalishiga ψ burchak ostida sinadi (parchalanadi) va undan prizma ko'rinishdagi kesak ajraladi. Ish organining ish sirti qavariq ko'rinishda bo'lsa (5, b-rasm) palaxsa siqilish bilan birga ko'ndalang yo'nalishda cho'ziladi, ya'ni ish organi ta'siri ostida palaxsaning m

nuqtasi Δz masofaga siqiladi va Δl masofaga cho'ziladi. Bu tuproqni yaxshi maydalanishi va ish organining tortishga qarshiligi kam bo'lishiga olib keladi.

Ish organining sirti botiq shaklga ega bo'lsa (5, v-rasm) palaxsa ham ish sirtiga perpendikulyar, ham ko'ndalang yo'nalishlarda siqiladi (bu siqilish palaxsaning m nuqtasi uchun mos ravishda Δz va Δl ga teng). Bu o'z-o'zidan tuproqqa ishlov berishda energiya sarfini ortishiga olib keladi.

Demak, tuproqni kam energiya sarflagan holda sifatli uvalanishini ta'minlash uchun yumshatkichning ish sirti qavariq shaklda bo'lishi lozim.

Yumshatkich ish sirtining uzunligini aniqlash uchun tuproq yetarli darajada yumshatilishi va uvalanishi

shartdan kelib chiqqan holda qo'yidagi ifodaga ega bo'lindi

$$L_{yu} \geq AD = 2 \left\{ [\tau_{\kappa}] \left[b_{yu} \cos \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) + htg \left(\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2} \right) \right] \times \right.$$

$$\times h \cos \frac{1}{2} (\varphi_1 + \varphi_2 - \alpha_{yu}) \cos \varphi_1 \left. \right\}^{\frac{1}{2}} \times \left\{ dh^p \left(1 + K_V V \sin \frac{\alpha_{yu}}{2} \right) \times \right. \\ \left. \times b_{yu} \cos^2 \frac{1}{2} (\alpha_{yu} - (\varphi_1 + \varphi_2)) [\cos (\alpha_{yu} + \varphi_1) + \cos \varphi_2] \sin \alpha_{yu} \right\}^{\frac{1}{2}}. \quad (2)$$

$[\tau_k]$, φ_1 , φ_2 , d , p va K_V larni yuqorida keltirilgan qiymatlarini (2) ifodaga qo'yib hamda $\alpha_{yu} = 30^\circ$ qabul qilib, agregatning 1,7-2,2 m/s tezliklarda sug'orish egatini 30-40 cm chuqurlikda talab darajasida yumshatish uchun yumshatkich ish sirtining uzunligi 125-145 mm bo'lishi kerakligi aniqlandi.

Yumshatkich enini tuproqni kam energiya sarflagan holda sifatli yumshatish uchun ish organining kritik yumshatish chuqurligi uni tuproqqa botish, ya'ni ishlov berish chuqurligi h ga teng yoki undan katta bo'lishi shartidan aniqlandi va quyidagi ifodaga ega bo'lindi:

$$b_{yu} \geq \frac{h(m + ctg \alpha_{yu})}{0,1 \frac{[\sigma_e]}{[\tau_k]} (1 + 3tg \xi) - n}, \quad (3)$$

bunda $[\sigma_e]$ – tuproqni ezilishga solishtirma qarshiligi, Pa; ξ – tuproqqa yumshatkich tomonidan ta'sir etuvchi kuchlar teng ta'sir etuvchisining gorizontga nisbatan og'ish burchagi, $^\circ$; n , m – tuproqning fizik-mexanik xossalari bog'liq bo'lgan o'lchov birliksiz koeffitsientlar.

Ifodaga $m = 4,2$, $[\sigma_e] = 1,44 \cdot 10^6$ Pa va $[\tau_k] = 2 \cdot 10^4$ Pa, $n = 2,5$ qiymatlarni qo'yib, egat tubini 40 cm chuqurlikda devorlari zichlangan egat hosil qilmasdan yumshatilishi uchun uning eni 140 mm dan kam bo'lmasligi aniqlandi.

Yumshatkichning tortishga qarshiligini aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi

$$R_{yu} = [\sigma_e] t_t b_{yu} + k_{yu} [\tau_k] \frac{[b_{yu} \cos \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) + h tg (\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2})] \cdot h}{\cos^2 \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2)} \times [\sin \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) + \\ + f \cos \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) \cos \alpha_{yu}] + \rho h \left(1 + \frac{w}{100} \right) \left\{ b_{yu} L_{yu} g tg (\alpha_{yu} + \varphi_1) + [b_{yu} \cos \frac{1}{2} \times \right. \\ \left. \times (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) + h tg (\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2})] V^2 \frac{\sin \alpha_{yu} \sin (\alpha_{yu} + \varphi_1)}{\cos^2 \frac{1}{2} (\alpha_{yu} + \varphi_1 + \varphi_2) \cos \varphi_1} \right\} + \\ + (h - L_{yu} \sin \alpha_{yu}) [q_o t_u (1 + f ctg \gamma) f q_{yo} (2b_u - t_u ctg \gamma)], \quad (4)$$

bunda t_t – yumshatkich tig'ining qalinligi, m; k_{yu} – yumshatkich ish sirti shaklini uning tortishga ko'rsatadigan qarshiligiga ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsient; ρ – tuproqning zichligi, kg/m³; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; w – tuproqning namligi, %; q_o , q_{yo} – tuproqni yumshatkich ustunining old (o'tkirlangan) va yonbosh qismlariga solishtirma bosimi, Pa; t_u – ustunning qalinligi, m;

b_u – ustunning eni, m.

(4) ifoda bo'yicha hisoblar 1,7-2,2 m/s tezliklarda yumshatkichning tortishga qarshiligi 7300-7705 N ni tashkil etishini ko'rsatdi. Shundan 91-92 foizi yumshatkichga, qolgani esa ustunga to'g'ri keladi.

Eksperimental tadqiqotlar QXMITI tajriba xo'jaligining qator oralarining kengligi 90 cm bo'lgan paxtadan bo'shagan maydonlarida o'tkazildi.

Yumshatkich enini uning ish ko'rsatgichlariga ta'sirini aniqlash uchun tajribalarda bu omil 40 mm oraliq bilan 100 mm dan 220 mm gacha o'zgartirildi. Tajribalarning natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Eni turlicha bo'lgan yumshatkichlarning sifat va energetik ish ko'rsatkichlari

Ish organi-ning eni, mm	Ish tezligi, km/h	Quyidagi o'lchamdagi (mm) fraktsiyalar miqdori, %			Yumshatilgan qatlam chuqurligi, cm		Yumshatilgan tuproq kengligi, cm		Tortishga qarshilik, kN
		>100	100-50	< 50	$M_{o'r}$	$\pm\sigma$	$M_{o'r}$	$\pm\sigma$	
100	6,0	10,85	13,51	75,64	35,2	1,18	68,5	1,42	9,62
	8,0	10,53	11,27	78,22	34,0	1,09	66,9	1,15	10,50
140	6,0	11,87	13,79	74,34	35,4	1,42	72,4	1,08	10,75
	8,0	10,79	11,53	77,68	33,9	1,04	70,5	1,35	11,67
180	6,0	14,20	12,20	73,60	35,1	1,19	76,7	1,53	11,32
	8,0	12,48	11,85	75,67	34,3	1,42	74,4	1,92	12,37
220	6,0	14,69	12,86	72,45	35,2	1,08	79,7	1,49	11,55
	8,0	12,54	12,66	74,80	34,5	1,43	78,8	1,07	12,50

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra yumshatkich enini oshishi tuproqning uvalanish sifatini yomonlashuviga olib kelgan. Buni yumshatkich tomonidan tuproqning deformatsiyalanish zonasi ortib, katta kesaklarni ko'chish ehtimoli ortishi bilan izohlash mumkin. Tezlikni ortishi esa tuproqning uvalanish sifatini yaxshilanishiga olib kelgan. Buni tuproqqa ish organi tomonidan berilayotgan zarba kuchini ortishi bilan tushuntirish mumkin.

Tajribalar tuproq sifatli yumshatilishi uchun yumshatkichning eni 140 mm dan kam bo'lmasligi lozimligini ko'rsatdi, chunki $b_{yu} = 100$ mm bo'lganda ishlov berilayotgan qatlam tubi yetarli darajada yumshatilmasdan, unda ish organini eniga teng bo'lgan devorlari zichlangan ariqcha hosil bo'lib, bu tuproqning fizik-mexanik xossalari yomonlashuviga hamda energiyani befoyda sarflanishiga olib keladi.

Yumshatkich eni ortishi bilan tortishga qarshilik hamda yumshatilgan qatlam kengligi ortadi. Bu ish organi tomonidan deformatsiyalanayotgan tuproq hajmini ortishi bilan izohlanadi.

Tezlikni ortishi yumshatilgan qatlam kengligini kamayishiga olib kelgan. Bu ish organi bilan tuproqni o'zaro ta'sir vaqti kamayishi bilan izohlanadi.

Yumshatkichni tuproqqa kirish burchagini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajribalarda uning tuproqqa kirish burchagi 5° oraliqda 20° dan 40° gacha o'zgartirildi. Agregatning harakat tezligi 6,0 va 8,0 km/h etib qabul qilindi. Tajribalarning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Yumshatkich ish ko'rsatkichlarini uning tuproqqa kirish burchagiga bog'liq ravishda o'zgarishi

Tuproqqa kirish burchagi, ^o	Ish tezligi, km/h	Quyidagi o'lchamdagi (mm) fraksiyalar miqdori, %			Yumshatilgan qatlam chuqurligi, cm		Yumshatilgan tuproq kengligi, cm		Tortishga qarshilik, kN
		>100	100-50	< 50	M _{o'r}	±σ	M _{o'r}	±σ	
20	6,0	12,93	15,83	71,24	34,9	1,08	66,3	1,28	9,96
	8,0	12,48	13,85	73,67	34,5	1,22	64,5	1,82	10,30
25	6,0	12,59	13,84	73,59	34,9	1,48	70,5	1,83	9,04
	8,0	11,98	13,63	74,39	31,1	1,07	68,4	1,48	9,74
30	6,0	10,75	13,81	75,44	35,3	1,19	72,8	1,53	8,12
	8,0	9,96	13,14	77,90	35,1	1,42	70,4	1,92	9,10
35	6,0	10,04	12,98	76,98	35,2	1,07	73,5	1,42	8,30
	8,0	9,65	12,15	78,20	34,9	1,42	71,9	1,35	9,32
40	6,0	11,64	13,78	74,58	35,4	1,24	71,8	1,18	9,74
	8,0	10,76	13,63	75,61	35,2	1,32	69,4	1,43	10,10

Keltirilgan ma'lumotlar agregatning har ikkala harakat tezligida ham yumshatkichning tuproqqa kirish burchagini 20° dan 35° gacha o'zgaririshi tuproqning uvalanish sifati yaxshilanishiga, 35° dan 40° gacha ortishi esa pasayishiga olib kelishini ko'rsatdi. Tuproq uvalanish sifatini bunday qonuniyat bo'yicha o'zgarishini tuproq siqilishidan boshlab parchalanguncha yumshatkich tomonidan bosib o'tiladigan S masofani uning tuproqqa kirish burchagi α_{yu} ga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyati bilan tushintirish mumkin.

Tuproqqa kirish burchagini 20 dan 40° oraliqda o'zgarishi yumshatilgan qatlam chuqurligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

Tortishga qarshilik α_{yu} ga bog'liq ravishda botiq parabola qonuniyati bo'yicha o'zgargan, ya'ni oldin kamayib keyin ortgan. Bu ham S masofani α_{yu} burchakka bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyati bilan izohlanadi.

Yumshatkich ish sirti uzunligini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajribalarda uning uzunligi 50 mm oraliqda 100 mm dan 250 mm gacha o'zgartirib borildi, uning eni 140 mm, agregatning harakat tezligi esa 6,0 va 8,0 km/h bo'ldi.

O'tkazilgan tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, sug'orish egati ichini sifatli yumshatilishini ta'minlash uchun yumshatkich ish sirtining uzunligi 150 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Yumshatkichning nazariy tadqiqotlar va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi. Bunda, quyidagi shartli belgilashlar kiritildi: X_1 -yumshatkichning eni, X_2 -yumshatkichning tuproqqa kirish burchagi, X_3 -yumshatkich ishchi sirtining uzunligi, X_4 -agregatning harakat tezligi.

Tajriba natijalari asosida jarayonni adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya

tenglamalari olindi:

a) tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha (%)

$$Y_1 = 75,775 - 2,947X_1 + 2,432X_2 + 0,848X_3 + 1,843X_4 + 1,465X_1^2 + 0,396X_1X_2 - 0,409X_1X_4 + 1,023X_2^2 + 1,974X_2X_4 - 1,280X_3^2 - 0,530X_4^2; \quad (5)$$

b) yumshatilgan tuproqning kengligi bo'yicha (cm)

$$Y_2 = 72,634 + 4,474X_1 + 1,720X_2 + 2,993X_3 - 4,505X_4 + 1,027X_1^2 + 2,113X_1X_2 + 1,479X_1X_3 - 2,125X_1X_4 - 1,463X_2^2 + 3,884X_2X_3 - 1,128X_2X_4 - 1,468X_3^2 - 0,963X_4^2; \quad (6)$$

v) yumshatkichning tortishga qarshiligi bo'yicha (kN)


$$Y_3 = 10,488 + 2,421X_1 + 0,702X_2 + 1,325X_3 + 2,305X_4 - 0,356X_1^2 + 0,239X_1X_2 + 0,260X_1X_3 + 0,242X_1X_4 + 0,360X_2^2 - 0,270X_2X_3 - 0,481X_2X_4 - 1,124X_3X_4 + 1,220X_4^2. \quad (7)$$

Olingan regressiya tenglamalari « Y_1 » mezon 75 foizdan yuqori « Y_2 » mezon 90 cm dan ortiq bo'lmasligi, « Y_3 mezon esa minimal qiymatga ega bo'lish shartlaridan yechilib, agregatni 6-8 km/h ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda tuproqqa talab darajasida ishlov berish uchun $b_{yu}=143-149$ mm, $\alpha_{yu}=26-32^\circ$ va $L_{yu}=170-204$ mm oralig'ida bo'lishligi aniqlandi.

Omillarning ushbu qiymatlarida tuproqni uvalanish darajasi 75,2-78,9 %, tuproq deformatsiyalanish zonasining kengligi 69,0-72,5 cm, tortishga qarshiligi 9,5-11,6 kN ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan agregat pushta olgichining parametrlarini asoslash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari**» deb nomlangan to'rtinchi bobda pushta olgich tomonidan kesilayotgan tuproq palaxsasining o'lchamlari, pushta balandligi, uni tuproqqa botish chuqurligini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar, tuproq bo'laklarini disk ish sirtidagi va undan tushgandan keyingi harakatini ifodalovchi matematik modellar hamda eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

Pushta olgich yumshatkich tomonidan yumshatilgan hamda o'g'itlangan qatlam ustiga o'tgan yilgi pushtalar tuprog'ini surib, yangi pushtalar hosil qilib ketadi (6-rasm). Bunda har bir pushta bir-biriga qarama-qarshi o'rnatilgan ikkita sferik disk bilan hosil qilinadi.



6-rasm. Sferik disklar yordamida pushta shakllantirish sxemasi

Ish jarayonida disklar tuproq palaxsalarini kesadi, ularni ish sirtlari bo'ylab ko'taradi va yonbosh tomonga otib, pushta hosil qiladi. Disk ish sirtida tuproq bo'laklari murakkab, ya'ni disk bilan aylanma va uning ish sirti bo'ylab nisbiy harakatda bo'ladi. Natijada disk sirtining M_o nuqtasidagi tuproq bo'lagi absolyut harakatda bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng M nuqtaga siljiydi (7-rasm).

Disk ish sirtidagi tuproq bo'laklarining absolyut tezligi nisbiy V_n va ko'chirma V_k tezliklarni geometrik yig'indisidan iborat, ya'ni


$$V_a = \sqrt{V_n^2 + V_k^2 + 2V_n V_k \cos \varepsilon}, \quad (8)$$

bunda ε – V_n va V_k lar orasidagi burchak.

Ko‘chirma tezlik diskning burchak tezligi va tuproq bo‘laklarini uning ish sirtida joylashgan o‘rniga bog‘liq bo‘lib, uni quyidagi ifoda bilan aniqlash mumkin


$$V_k = V_i \frac{R}{R_d} \cos \beta \sin \varphi, \quad (9)$$

bunda V_i – diskning ilgariylanma harakatdagi tezligi, m/s; R_d – disk radiusi, m; R – disk ishchi sirtini egrilik radiusi, m; β – diskni harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi,°; φ – tuproq bo‘lagini disk ishchi sirtining egrilik radiusi bo‘ylab burilish burchagi,°.



7-rasm. Tuproq bo‘laklarining disk ish sirti bo‘ylab harakat sxemasi

V_n tezlikni aniqlash uchun tuproq bo‘laklarini disk ish sirtidagi nisbiy harakatining differensial tenglamasini tuzamiz va yechamiz. Disk ish sirtidagi tuproq bo‘laklari agregatning ilgariylanma harakati tufayli unga uzluksiz kelib tushayotgan va ko‘tarilayotgan tuproq oqimiga tayanib turganligi tufayli uning ish sirtida joylashgan M tuproq bo‘lagi asosan R radius hosil qilgan yoy bo‘ylab nisbiy harakatda bo‘ladi (8-rasm). Buni hisobga olganda tuproq bo‘lagining disk ishchi sirti bo‘ylab nisbiy harakatining differensial tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi



8-rasm. Tuproq bo‘laklariga ta‘sir etuvchi kuchlar sxemasi

$$\frac{d(\dot{\varphi}^2)}{d\varphi} + 2f\dot{\varphi}^2 = \frac{2g}{R} \cos \varphi \cos \alpha_d + \omega^2 \sin 2\varphi - 2f \left(\frac{g}{R} \sin \varphi \cos \alpha_d + \omega^2 \sin^2 \varphi \right), \quad (10)$$

bunda ω – diskning burchak tezligi, rad/s; m – tuproq bo‘lagining massasi, kg; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; f – disk materiali bilan tuproq orasidagi ishqalanish koeffitsienti; α_d – diskni tik o‘qqa nisbatan burilish burchagi,°.

$V_n^2 = \dot{\varphi}^2 R^2$ ekanligini hisobga olgan holda (10) tenglamani yechib, tuproq bo‘lagining nisbiy harakatdagi tezligini aniqlash uchun quyidagi bog‘liqlikni olamiz

$$V_n = \left\{ -e^{2f(\varphi_0 - \varphi)} \left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)} \cos \varphi_0 \cos \alpha_d + 2gR \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \sin \varphi_0 \cos \alpha_d + \right. \right. \\ \left. \left. + V_i^2 \frac{R^2}{R_d^2} \cos^2 \beta \left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f} - \sin^2 \varphi_0 \right) \right] + \frac{6fgR}{1+4f^2} \cos \varphi \cos \alpha_d + \right.$$

$$+ 2gR \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \sin \varphi \cos \alpha_d + V_i \frac{R^2}{R_d^2} \cos^2 \beta \left(\frac{\sin 2\varphi}{f} - \sin^2 \varphi \right) \left. \right\}^{\frac{1}{2}}, \quad (11)$$

bunda $\varphi_0 - \varphi$ burchakning boshlang'ich qiymati,°.

(9) dan V_k va (11) dan V_n larni qiymatlarini (8) ifodaga qo'yib hamda tuproq bo'laklarini nisbiy harakati faqat R radiusli yoy bo'yicha bo'lganda $\varepsilon = 90^\circ$ bo'lishligini e'tiborga olib, ularning diskdan tushishi vaqtidagi absolyut tezligini aniqlaymiz


$$V_a = \left\{ (V_i \cos \beta)^2 + \left\{ -e^{2f \left(\varphi_0 - \arcsin \frac{R_d}{2R} \right)} \left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)} \cos \varphi_0 \cos \alpha_d + 2gR \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \times \right. \right. \right. \\ \left. \left. \times \sin \varphi_0 \cos \alpha_d + V_i^2 \frac{R^2}{R_d^2} \cos^2 \beta \left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f} - \sin^2 \varphi_0 \right) \right] + \frac{6fg\sqrt{R^2 - R_d^2}}{1+4f^2} \cos \alpha_d + \right. \\ \left. \left. + 2gR_d \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \cos \alpha_d + V_i^2 \frac{R^2}{R_d^2} \cos^2 \beta \times \left[\frac{2R_d\sqrt{R^2 - R_d^2}}{fR^2} - \left(\frac{R_d}{R} \right)^2 \right] \right\} \right\}^{\frac{1}{2}}. \quad (12)$$

(9), (11) va (12) ifodalar disk ish sirtini istalgan nuqtasida joylashgan tuproq bo'laklarini ko'chirma, nisbiy va absolyut tezliklarini qiymatini aniqlash imkonini berib, berilgan ish sharoiti uchun tuproq bo'laklarining disk ish sirtidagi harakat tezliklari va demak pushta o'lchamlari va shakli agregatning tezligiga, disk sferasi radiusiga hamda diametriga va uning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Tuproq bo'laklari diskdan tushgandan so'ng (9-rasm) boshlang'ich tezlik bilan havoda erkin harakat qilishga o'tadi va biroz muddatdan keyin agregat yumshatkichi ishlov bergan zonaga kelib tushib, pushta hosil qiladi.

9-rasmda keltirilgan sxemaga binoan disklardan tushayotgan bo'laklar sifatli pushta hosil qilishi uchun quyidagi shart bajarilishi lozim

$$Y = \frac{1}{g} \left\{ \left[\frac{6fg\sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{1+4f^2} \cos \alpha_i + gD_d \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \cos \alpha_i + 4V_i^2 \frac{R^2}{D_d^2} \cos^2 \beta \times \right. \right.$$



9-rasm. Sferik disklar tomonidan pushta hosil bo'lish shartini aniqlashga doir sxema

$$\begin{aligned}
& \times \left[\frac{D_d \sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{fR^2} \right] - e^{2f[\varphi_0 - \arcsin(\varphi_0 - \arcsin(D/2R))]} \left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)} \sin \varphi_0 \cos \alpha_t + \right. \\
& \left. + 2gR \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \sin \varphi_0 \cos \alpha_t + 4V_i^2 \frac{R^2}{D_d^2} \cos^2 \beta \left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f} - \sin^2 \varphi_0 \right) \right] \left. \right]^{\frac{1}{2}} \times \\
& \times \left\{ \frac{R}{(0,5D_d)} \cos \beta + \frac{\sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{R} \sin \alpha_t \sin \beta \right\} + \frac{1}{2} V_i \sin 2\beta \cos \alpha_t \left. \right\} \times \\
& \times \left\{ V_i \cos \beta \sin \alpha_t - \left\{ \frac{6fg\sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{1+4f^2} \cos \alpha_t + gD_d \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \cos \alpha_t + \right. \right. \\
& \left. \left. + 4V_i^2 \frac{R^2}{D_d^2} \left[\frac{D_d \sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{fR^2} - \left(\frac{D_d}{2R} \right)^2 \right] \cos^2 \beta - e^{2f[\varphi_0 - \arcsin(\varphi_0 - \arcsin(D/2R))]} \times \right. \right. \\
& \left. \left. \times \left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)} \sin \varphi_0 \cos \alpha_t + 2gR \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \sin \varphi_0 + 4V_i^2 \frac{R^2}{D_d^2} \cos^2 \beta + \right. \right. \right. \\
& \left. \left. \left. + \left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f} - \sin^2 \varphi_0 \right) \right] \right\}^{\frac{1}{2}} \frac{\sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{R} \cos \alpha_t + \left\{ \left\{ V_i \cos \beta \sin \alpha_t - \right. \right. \right. \\
& \left. \left. \left. \left\{ \frac{6fg\sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{fR^2} \cos \alpha_t + gD_d \left(\frac{1-2f^2}{1+4f^2} \right) \cos \alpha_t + 4V_i^2 \frac{R^2}{D_d^2} \times \right. \right. \right. \\
& \left. \left. \left. \times \left[\frac{D_d \sqrt{R^2 - (0,5D_d)^2}}{fR^2} - \left(\frac{D_d}{2R} \right)^2 \right] \cos^2 \beta - e^{2f[\varphi_0 - \arcsin(\varphi_0 - \arcsin(D/2R))]} \times \right. \right. \right. \\
